

QUYOSH PANELLARI

Dildora Xaydarqulovna Tashpulatova¹

Toshtemirov Axror²

¹A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti o’qituvchi

²Fizika –astronomiya yo’nalisi talabasi, Jizzax sh., O’zbekiston

e-mail:dildora87@jspi.uz

Annotatsiya. Muqobil energiya manbayi hisoblangan Quyosh panellarining tuzilishi va turlari haqida ma’lumotlar berilgan. Mono va polikristalli quyosh panellarining faarqli tomonlari izohlangan.

Kalit so’zları: muqobil energiya, quyosh paneli, geliopanel, polikristal, amorf kremniy, polikristall, monokristall.

Аннотация. Приведены сведения о структуре и типах солнечных панелей, которые рассматриваются как альтернативный источник энергии. Объяснены различия междуmono- и поликристаллическими солнечными панелями.

Ключевые слова: альтернативная энергетика, солнечная панель, гелиопанель, поликристалл, аморфный кремний, поликристалл, монокристалл.

Abstract. Information about the structure and types of solar panels, which are considered as an alternative energy source, is given. The differences between mono and polycrystalline solar panels are explained.

Key words: alternative energy, solar panel, heliopanel, polycrystalline, amorphous silicon, polycrystalline, monocrystalline.

Talabga javob beradigan muqobil energiya manbaalari hozirda quyoshdan energiya olib ishlaydigan uskunalar hisoblanadi. Bu yo’nalish dunyo bo’ylab juda jadallik bilan rivojlanmoqda, hususan O’zbekiston ham bu borada qolishayotgani yo’q. Elektr energiya va boshqa manbaalarning narxi ko’tarilayotgani sababli bizning mamlakatimizda ham ko’p insonlar geliopanellarga qiziqishi ortib bormoqda.

Hozirda bozor sizga shunchalik ko’p turdagи quyosh panellarini taklif qilishi mumkin, ularning turlari judayam ko’p, shu sababdan haridorlarda savol tug’ilishi mumkin “ Qanday qilib sifatli quyosh panelini tanlash mumkin? Quyosh panellarining qanday turlari bor? “ Maqolada shu haqida so’z boradi. Birinchi navbatda panellar, materiallar, ishlash prinsipi va ishlab chiqarish turiga qarab farqlanadi.


Kremniydan tashkil topgan quyosh panellari

Bunday turdagи panellarning eng birinchi farqi bu ishlatiladigan materialidadadir. Nomidan bilib olishingiz mumkin, bu kremniy quyosh panellaridir.

Bugungi kunda bozordagi eng ko’p uchraydigan panel. Bu kremniyi topish osonligidan, hamyonbop va boshqa panellarga qaraganda energiya ishlab chiqarishi ham anchagina yaxshiroqdir. Bunday panellarni ishlab chiqarishda nafaqat kremniydan, undan tashqari mono, polikristal va amorf kremniy ham ishlataladi. Farqi nimada?



Molikristalli quyosh
panellari



Polikristalli quyosh
panellari

Monokristal quyosh panellarini ishlab chiqarishda eng toza kremniydan foydalilaniladi. Ko’rinishida esa, barcha yacheykalar bir tizimga ulangan holda bo’ladi. Monokristalni tozalab bo’lgandan so’ng uni qotishi uchun vaqt talab etiladi. Qotib bo’lgandan so’ng esa o’ta yupqa plastinalarga ajratiladi.

Bunday plastinalar elektroddan yasalgan yuqa sim bilan bir biriga bog’lanadi. Amorfli panellarga nisbatan qimmatroq turadi. Sababi, bu turdagи panellarni ishlab chiqarish juda qiyin. Ammo, bu turdagи panellarni tanlash ham yaxshi, sababi bu panellarning foydali ish koeffitsiyenti 20% atrofida bo’lib, quyosh panellari uchun juda yaxshi ko’rsatkich.

Polikristalni ajratib olish uchun, kremniylik plastina sovutiladi. Bu turdagи panellarni ishlab chiqarish monokristal panellarni ishlab chiqarishdan ko’ra arzondir. Shu sababli, bu panellar ham arzonroq. Bu panellarni tayyorlash ham kam energiyani talab etadi, bu omil ham narxga ijobiyligi ta’sir etadi. Nega bu turdagи

panellarning foydali ish koeffitsiyenti 18% va undan past? Polikristalning ichida paydo bo’ladigan aralashma sababli foydali ish koeffitsiyenti pasayib ketadi.

Qayerda qo’llash mumkin

Quyosh panellari inson hayotida ko’p sohalarda qo’llanishni boshladi. Boshlanishida faqatgina uy sharoitidagi xo’jalik ishlari va elektrenergiyasi o’rniga qo’llanilgan bo’lsa, hozirda bu qobiqdan chiqib boshqa sohalarga ham kirib bormoqda.

- Qishloq xo’jaligi va boshqa ishlab chiqarish strukturalarida
- Kichik korxonalarda
- Xususiy uylarda issiqlikni saqlash uchun
- Ko’cha yoritgichlarida, energiya tejovchi lampa uchun
- Kommunal korxonalarda, shaxarni yoritish uchun

Quyosh panellarining afzalliklari

Quyosh resurslaridan foydalanishni bir necha xil afzalliklari bor

- Boshqa energiya manbaalaridan farqli o’laroq, quyosh energiyasi tugamaydi. Quyosh panellarini o’rnatish va undan foydalanish elektr va issiqlik energiyasidan foydalanish uchun ajoyib yechim bo’lib xizmat qiladi. NASA tadqiqotlari bo’yicha quyosh yana 6.5 milliard yil o’z nurini sayyoramizdan ayamaydi.
- Quyosh energiyasini potensiali o’ta yuqori darajada. Foydalanish uchun olinishi mumkin bo’lgan energiya manbai terravatlarda o’lchanadi. Bu esa talabdan ko’ra 20 baravar ko’proqdir. Undan, tashqari quyosh energiyasini isrof qilib tugatishni iloji yo’q, shu sababdan bu energiyadan keljak avlod ham bemalol foydalanishi mumkin.
- Quyosh nurlari Yer sayyorasining istalgan nuqtasigacha yetib boradi, bu faqatgina ekvator atrofida joylashgan davlatlarga tegishli emas, hatto Shimoliy Qutbda ham quyosh energiyasidan bemalol foydalanish mumkin. Hozirda davlatlar orasida bu energiyada foydalanish bo’yicha Germaniya ustunlik qiladi.
- Ekologiya uchun havfsiz. Hozirda foydalaniyatgan energiya manbaalari atrof muhitga katta zarar yetkazibgina qolmasdan, ularni o’rnini qoplash ilojsizdir. Quyosh energiyasi esa bundan mustasno. Quyosh panellarini ishlab chiqarish, undan foydalanish ekologiya uchun mutlaqo havfsizdir.
- Shovqinsiz. Ishlab chiqarish va undan foydalanishda shovqin umuman bo’lmaydi.
- Tejamkorlik. Ishlatish uchun kam harajat talab etiladi.
- Qo’llash mumkin bo’lgan jabhalar juda ko’p.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Удалов Н. С. Возобновляемые источники энергии. - Новосибирск: Изд-во НГТУ, 2009. - 412 с. - С. 305-306.
- 2 . Ушаков, В. Я. Современная и перспективная энергетика. - Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2008. - 468 с. - С.324-328.
- 3 . Виссарионов В. Я. Количественная энергия: учебное пособие для вузов. - М .: Издательский дом МЭИ, 2008. - 320 с. - С. 113-115.
4. Toshpo'latova, D., & Isroilova, G. (2021). Об эволюции магнитного noToKa в сверхпроводниках Второго рода. физико-технологического образование, (3).
- 5.Taylanov, N., Toshpulatova, D., O'rozov, A., & Narimanov, B. (2021). Flux jumping in type-II superconductors. Физико-технологического образование,